

QADIMIY UY-ROZG'OR BUYUMLARI

Toshpo'latova Dilorom Rustam qizi

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi,

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek qadimiy uy-ro'zg'or buyumlari tarix haqida ma'lumotlar to'liqroq qilib yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *sipor azal, bo'yintiriq, tirkash, dandana, kapcha, zag'ama tir, poza, panjshoxa; kovush, etik, mish charm, men-cho'p,*

Omoch. O'zbekistonda jamoa va shaxsiy xo'jaliklarda yerga ishlov berish qurollarining ana'naviy turlari hozir xozir xam ishlatilmoqda. Masalan: yerni haydashda yog'ochdan yasalgan omoch (ba'zi yerlarda sipor azal) kabi qurollar ishkatiladi. Omochbo'yintiriq va tirkash bilan molga qo'shilgan bo'ladi. Xaydalgan yerni tekislash va kesaklarni yanchish uchun naxna molga yoki nishli six (dandana) ishlatiladi. Yer ishkarida bel ketmon, kapcha (kichik bel), hosil yig'ishda o'roq va xirmonda panjshoxa, yog'och bel, zag'ama (tir) kabi ish qurollar 30-yillarning o'rtalarigacha juda keng foydalanilgan; ayrim joylarda ular hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Qishloq xo'jaliklarining barcha soxalarida, ayniqsa ziroatchilikda eng muxim mexnat qurollari omoch, ketmon, belkurak va o'roq hisoblangan. Mazkur ish qurollarining maxalliy turlari bir oz farq qilgan. Omoch butun O'rta osiyoda diyarli bir hil bo'lmasada nabiiy geografik sharoitga qarab ayrim hususiyatga ega. U ikki qismdan iborat yaxlit tut yoki o'rik yog'ochidan, pastki tekis, pastki temir yoki chuyadan yasalgantish (Poza) o'rnatilgan, asosiy qismi va unga nik xolda xo'kiz yoki ot qo'shiladigan yakka shoti berkitilgan qismi og'ir toshloq yerlarda katta omoch yengil tuproqli yerlarda kichik omoch ishlatilgan. Omoch qarab yakka shotining uzunligi har xil bo'lgan. Omoch yerni ag'darmaydi, faqat yumsatadi va begona o'tlarni birdan qirqmaganligi uchun yer 5-6 marta xaydalgan. Haydalgan yerni tekislash va urug'ni sepgach ustidan tuproq tortish uchun mol ishlatilgan. Asli ikki hil mola bo'lgan 1-katta, og'ir tut yoki o'rik yog'ochdan yasalgan uzunligu 2 metr gacha keladi, temir yoki chuyan tishlar o'rnatilgan, 2-oddiy taxtadan 2.5 metr va undan uzunroq yasalgan tishsiz mola quruq qanloq va ajiriqli yerlarda ishlatilgan. Bu moladan boshqa yer ishlaridan ham foydalanilgan tashqari shox-shabbodalardan yasalgan chapar bilan ham yer -g'al xo'jaliklarda omoch ko'ndalang yotqizilib oddiy mola shaklida ishlatilgan. Molaga shaklida ishlatilgan. Molaga ham bo'yintoq o'rnatilgan qo'sh xo'kiz yoki ot qo'shilgan.

Teri ko'za. Ota bobolarimiz azaldan charimgarlik bilan shug'ullanib kelishgan, chunki charmdan xar hil ro'zg'or buyumlari va turli xildagi maxsulotlar tayyorlangan: Ustalar uch xil ko'rinishda ya'ni charmni chakka qilib, pishirib, bundan kovush, etik tikkanlar. Ikkinchi usulda -"Mish charm" pishirilib teridan bo'lgan uy ro'zg'or buyumlari tayyorlangan. Charmgarlik ancha murakkab qiyin jarayon bo'lib, bu kasbni sirlarini mukammal bilmagan kishi, xaqiqiy mahsulot tayyorlayolmaydi. Charm asosan mol, qo'y,

echki, ot, tuya, kabi uy hayvonlaridan tayyorlanadi. Saksavul kuli va oxak solingan idishga tozalangan teri 24 soat bo'ktiriladi. Keyin yog'ochgai ldirilib juni tozalanadi,teri toza suvga soliniib,idishning ichiga solib teriladi.Yer qazilib maxsus o'choq tayyorlanadi.O'choqni olov yonadigan qismi yer ostida bo'lib unga yer ustidan chiqib turadigan mo'ri qilinadi.O'choq ichidagi olov o'tolmasligi uchun havo kiruvchi tuynik qo'yilmagan.Mo'ring tepa qismiga quruq kalish tiqilib,undan chiqadigan tutunga teri pishirilgan.Teri dudlangan,maxsus tayyorlangan chuqurga taxlab ustidan qozon to'ntarilib qo'yilgan.Teri oqar suvga tashlanib, tuzi ketguncha yuvilgan.Keyin teri ranglanadi.Qadimda bo'yoq bo'lmagani uchun charmgarlar bo'yoqni ham o'zlari tayyorlagan.Bunda qaro rang chiqishi uchun piyoz va qazon qarosidan foydalangan, jigarrang bo'yoq tayyorlash uchun tut daraxti zamburug'lari qaynatilib,charm rangi tayyorlangandan keyin, oftobga choplash jarayoni ya'ni kapkirma o'xshash asbob bilan teri tekislanib,qalin joylari yupqalashtirilgan.O'tmas chop bilan teriga chat berilgan. Unda keyin teri uzun yog'ochga tashlanib men-cho'p deb atalgan tayoq bilan pardozlangan. Bunday ishlov berish bilan teri huddi dazmollangan mato shakliga kirib, tayyor holatga keladi.Mana shunday murakkab va og'ir jarayon orqali tayyorlangan charmdan yasalgan xum viloyat muzeyining ekspozitsiyasiga qo'yilgan.Bu xum XVIII asrga tegishli bo'lib asosan ayron ichimligi saqlangan.Bizga ma'lumki mishga solingan ayronni ta'mi mazzali bo'lgan va yaxtak holatda bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Toshkent. 1-12 tomlar 2006 y
- 2.O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.Toshkent 1996 y
- 3.Tarixning no'malum sahifalari. Toshkent 2005 y
- 4.AzamatZiyo."O'zbek dablatchiligi tarixi". Toshkent 2001 y